



Qo‘qon DPI

ILMIY XABARLAR

ISSN: 3030-3958

№ 3/2025

Qo‘qon DPI.

Ilmiy xabarlar



Кокандский ГПИ.

Научный вестник

№3/2025

<p>УЎК 5/9(08) КБК 72я5 Қ 99</p> <p>MUASSIS: Qo‘qon davlat pedagogika instituti</p> <p>Qo‘qon DPI. ILMIY XABARLAR- НАУЧНЫЙ ВЕСНИК. Кокандский ГПИ. Jurnal bir yilda o‘n ikki marta chop etiladi.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2020-yil 9-iyulda 1085 raqam bilan ro‘yxatga olingan.</p> <p>Jurnaldan maqola ko‘chirib bosinganda, manba ko‘rsatilishi shart.</p> <p>"Qo‘qon DPI.Ilmiy xabarlar" ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31- martdagি qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix, 2023-yil 5-maydagи №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika hamda 2024-yil 8-maydagи 5/7-sonli OAK tartib qoida komissiyasi qarori bilan Jismoniy madaniyat, psixologiya va san‘atshunoslikfan tarmoqlari bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan.</p> <p>Tahririyat manzili: 150700, Qo‘qon shahar, Turon ko‘chasi, 23-uy. Tel.: (0373) 542-38-38. Cайт: www.kspi.uz journal.kspi.uz</p> <p>ISBN: 978-9943-7182-7-2 “CLASSIC” nashriyoti 2025</p>	<p>Bosh muharrir: Qo‘qon davlat pedagogika instituti rektori D.Sh.Xodjayeva Mas’ul muharrirlar: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor N.S.Jurayev Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor N.A.Kadirova Mas’ul muharrir yordamchisi: Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i D.O‘rinboyev Nashr uchun mas’ul: M.Z.Muydinov</p> <p>TABIIY FANLAR И.И.Гибадуллина, кандидат биологических наук, (РФ) Sh.S.Nomozov, texnika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB) V.U.Xo‘jayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) I.R.Asqarov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) A.A.Ibragimov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) S.F.Aripova, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) Sh.V.Abdullayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.Yo.Abduganiyev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) A.E.Kuchboyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) M.T.Isog‘aliyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) V.Yu.Isaqov, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) T.O.Turginov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) A.M.Gapparov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) I.I.Oxunov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (O‘ZB) А.Ж.Хусанов-физика-математика фанлари номзоди, доцент (O‘ZB) O.A.Turdiboyev, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) G.M.Ochilov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.No‘monov, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) M.Madumarov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)</p> <p>FILOLOGIYA FANLAR Huseyin Baydemir filologiya fanlari doktori, professor, (TR) И.А.Киселёва, доктор филологических наук, профессор (РФ) В.В.Борисова, доктор филологических наук, профессор (РФ) К.А.Поташова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) Э.Р.Ибрагимова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) S.Muhamedova, filologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) G.Islailov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘ZB)</p> <p>IJTIMOIY FANLAR Л.Г.Насырова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) З.В.Галлямова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) D.N.Abdullayev, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB) M.Rahimov, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB)</p> <p>PEDAGOGIKA FANLAR Р.Ф.Ахтариева, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Н.Н.Масленникова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Л.А.Максимова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) X.I.Ibragimov, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB) B.X.Xodjayev, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.S.Abdullayeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) N.A.Muslimov, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) N.M.Egamberdiyeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)</p>
--	---



UDK: 543.054:634.

ALHAGI SPARSIFOLIA SHAP O‘SIMLIGI TARKIBIDAGI AMINOKISLOTALAR TARKIBI

Muqimjonova Umidaxon Vahobxon qizi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD
muqimjonovaumidaxon@mail.ru +998912037202

ORCID ID: 0009-0006-5061-4811

Abduraxmonova Noilaxon Murotali qizi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti magistranti
noilaxonyitaliyeva444@mail.com +998908513238
ORCID ID: 0009-0002-8808-2807

Annotatsiya Ushbu maqolada Farg‘ona viloyati Yozyovon tumani Markaziy Farg‘ona qishlog‘ida o‘sadigan alhagi sparsifolia shap (yantoq) o‘simgining ildizi, bargi va guli tarkibidagi aminokislotalar miqdor tarkibi yuqori samarali suyuqlik xromotografiyasi usulda tadqiq qilish natijalari keltirilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, namunalar tarkibida 20 xil aminokislotalar miqdori aniqlangan bo‘lib, namunalar tarkibi hayot uchun zaruriy aminokislotalarga boyligi, ulardan xalq tabobatida foydalanib, inson organizmini oqsil tanqisligidan himoyalash mumkin ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Alhagi sparsifolia shap, aminokislotalar, yuqori samarali suyuqlik xromotografiyasi.

СОСТАВ АМИНОКИСЛОТ РАСТЕНИЯ ALHAGI SPARSIFOLIA SHAP

Аннотация. В статье представлены результаты метода высокоэффективной жидкостной хроматографии по содержанию аминокислот в корне, листе и цветках алхаги спарсифолиальной, произрастающей в селе Центральная Фергана Езёвонского района Ферганской области. По результатам анализа в образцах определено количество 20 различных аминокислот, что свидетельствует о богатстве образцов необходимыми для жизнедеятельности аминокислотами, которые могут быть использованы в народной медицине для защиты организма человека от белковой недостаточности.

Ключевые слова: Alhagi sparsifolia shap, аминокислоты, высокоэффективная жидкостная хроматография.

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-soni)**



**FILOLOGIYA
PHILOLOGY**

**TURK VA O’ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLER ORQALI VAQT
TUSHUNCHASINI IFODALANISHI**

*Shorasulova Arofat Ibroxim qizi
Sharqshunoslik universiteti
Turk tili oqituvchisi*

Annotatsiya Vaqt tushunchasini har bir xalq o‘z frazeologik birliklari orqali aks ettiradi. O‘zbek tilida “vaqt – oltin” yoki “bir lahma qadrli” kabi iboralar mavjud bo‘lsa, turk tilida “vakit nakittir” (vaqt – pul) yoki “anı yaşamak” (hozirgi lahzani yashash) kabi iboralar ko‘proq ishlataladi. Bu esa har ikki xalqning vaqtga bo‘lgan munosabatidagi ma’lum farqlarni ko‘rsatadi.

Kalit so’zlar: Vaqt, konsept, frazeologik birliklar, tilshunoslik, leksik birliklar, iboralar, maqol, abstrakt, obyektiv, qiyosiy tahlil.

**ВЫРАЖЕНИЕ ПОНЯТИЯ ВРЕМЕНИ ЧЕРЕЗ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ
ЕДИНИЦЫ В ТУРЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

Аннотация Каждый народ выражает понятие времени через свои фразеологические единицы. В узбекском языке существуют выражения, такие как «время – золото» или «мгновение ценно», в то время как в турецком языке чаще употребляются выражения «vakit nakittir» (время – деньги) или «anı yaşamak» (жить настоящим моментом). Это указывает на определенные различия в отношении времени у двух народов.

Ключевые слова: Время, концепт, фразеологические единицы, лингвистика, лексические единицы, выражения, пословицы, абстрактный, объективный, сравнительный анализ.

**EXPRESSION OF THE CONCEPT OF TIME THROUGH PHRASEOLOGICAL
UNITS IN TURKISH AND UZBEK LANGUAGES**

Abstract Each nation reflects the concept of time through its own phraseological units. In Uzbek, expressions such as “time is gold” or “a moment is precious” exist, whereas in Turkish, phrases like “vakit nakittir” (time is money) or “anı yaşamak” (living in the present moment) are more commonly used. This demonstrates certain differences in the perception of time between the two nations.

Keywords: Time, concept, phraseological units, linguistics, lexical units, expressions, proverbs, abstract, objective, comparative analysis.

Mamlakatimizda chet tilini bilishga bo‘lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Chunki chet tilini o‘rganish turli madaniyatlar va turfa fikrlar bilan tanishish uchun keng imkoniyatlar ko‘lamini ochib beradi. Chet tillarini o‘z ona tilimiz bilan solishtirgan holatda, ikki millat qadriyatlarini o‘zaro taqqoslab o‘rganish esa juda samarali usullardan sanaladi. Bu ayniqsa, frazeologik birlıklarni tarjima qilish jarayonida qo‘l keladi. Jaloliddin Rumiy hazratlari ta’kidlaganidek, “Har til - ko‘ngilning pardasidir. Parda qimirladimi, sirlar ochiladi” Demak, tilning har qanday dolzarb ko‘ringan muammolariga ham yechim topishning yo‘llari mavjud. To‘gri, turk tilidan o‘zbek tiliga turli frazeologik birlıklarni tarjima qilishda tarjima orqali ifodalangan muvofiq jumla va frazeologik birlıklar o‘z asl qiyofasini yo‘qotishi mumkin. Lekin yana bir muhim jihat shundaki, bizda maqol va matallarni o‘rganishga bo‘lgan e’tibor yetarlicha emas. Aslida, xalq tilining boyligi frazeologik qatlarning yetukligi, rang-barang jumla va oz so‘zlar ishtirokida ko‘p ma’nolarni ifodalash bilan o‘lchanadi. Negaki, odamlarning hayot muammolari, qayg‘usi-yu quvonchi, mehnati, mag‘lubiyat va g‘alabasi ibora, maqol, matallarda o‘z aksini topgan. Darhaqiqat, turli tillarda shakl va ma’no jihatdan bir xil bo‘lgan maqol, matal va iboralar juda ko‘p uchraydi. Masalan: o‘zbek tilida faol qo‘llaniladigan “Butun vujudi quloqqa aylanmoq” idiomasining **“Bütün vücudu kulağa dönüştürmek”** yoki **“Bütün bedeni kulak kesilmek”**

Turk tilida ushbu iborani **“kulak kesilmek”** shaklida ishlatalish yanada tabiiyroq bo‘ladi, bu “diqqat bilan tinglash” yoki “e’tiborini to‘liq bir narsaga qaratish” degan ma’noni anglatadi.

Shuningdek, vaqt ni tasvirlashda xalq maqollari ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, o‘zbeklarda “Har narsaning o‘z vaqtি bor” degan maqol mavjud bo‘lsa, turk tilida “Her şeyin bir zamanı var” degan ekvivalent shakl uchraydi.

Turk va o‘zbek tillari qanchalik bir-biriga yaqin, qanchalik bir-biriga o‘xshash bo‘lmash, ularning juda ko‘p farqli tomonlari, o‘quvchini adashtirishi mumkin bo‘lgan juda ko‘p jihatlari bor. Ayni shunday murakkab jihatlar bu ikki tilni ham qiyosiy ham alohida tadqiq qilinishi lozimligini ko‘rsatadi. Tilni biz ummonga o‘xshatamiz. Darhaqiqat, har bir til dengiz misoli jilolanadi. Dengizning har bir tomchisi kabi tilning ham o‘ziga xos xususiyatlari juda ko‘pdir.

Turk tilidagi juda ko‘p so‘zlar yozilishi va o‘qilishi jihatidan o‘zbek tiliga o‘xshashdir. Bularning bir qancha qismi ma’no jihatidan o‘zbek tili bilan bir xil bo‘lsada, juda ko‘p qismining ma’nosи umuman farqlidir. Bunday so‘zlarni “aldoqchi so‘zlar” deb ham ataladi. Turk tili bo‘yicha mutaxassis, olim, Berdaq Yusuf shunday so‘zlar bo‘yicha alohida lug’at tayyorlab, uni “aldoqchi so‘zlar lug’ati” deb nomlagan.[2.] Shunday so‘zlar bilan bir qatorda aytlishi bir, ma’nosи farqli bo‘lgan iboralar ham talaygina. Ushbu kichik tadqiqotimiz ham aynan ma’nosи jihatidan birbiriga o‘xshamaydigan iboralar haqidadir. Har bir tilning beba ho duru gavharlari bo‘lmish iboralarning o‘zi ham bir olamdir. Hozirgi kunda ikki tildagi iboralarni juda ko‘p jihatdan o‘rganishga e’tibor kuchayib bormoqda. Chunki iboralar hoh yozma nutqda hoh og’zaki nutqda bo‘lsin, tilning go‘zalligini ko‘rsatib beruvchi omil hisoblanib, ma’noni yetkazib berishda katta ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda ikki tilda ham o‘ziga xos, ajoyib iboralar mavjud bo‘lsada, yuqoridaq aldoqchi so‘zlar kabi, aytlishi bir , lekin

ma’nosi farqli bo‘lgan iboralar ham ko‘pdır.Ushbu maqolamizda iboralarning ayni shu jihatiga e’tibor qaratmoqchimiz. “Ma’lumki, frazeologizmlar nutq ta’sirini kuchaytiruvchi va insonlar tomonidan o‘zlashtirilib, ularning ongiga chuqur singib ketgan so‘zlar sifatida xalqning urfodati, an’analari, madaniyati va tarixini o‘zida yaqqol aks ettirib, adabiy tilning keng ifoda imkoniyatlarini o‘zida namoyon qiluvchi leksik vositalar hisoblangan birliklar sifatida inson hayotining barcha sohalarini qamrab olgan”.[3, 3.] Turk tilida shunday iboralar borki, huddi o‘zbek tilidagi iboraga o‘xshaydi. Iborani tashkil qiluvchi so‘zları ham bir xil. Lekin ularning ma’nosiga va qo‘llanish darajasiga kelsak umuman farqlidir. Shunday iboralardan biri “Soğukkanlı” dir. Bu iboraning aytilishi ham yozilishi ham o‘zbek tilidagi “sovuqqon” iborasiga o‘xshaydi. Bu ikki ibora bir xil talaffuz qilinib, qulqoqqa ham bir xil eshitiladi. Bu iboralar ikki tilda ham insonning xususiyatini, fe’l-atvorini tasvirlash uchun qo‘llaniladi. Lekin bu iboralarning tarjimadagi ma’nosi umuman boshqacha. O‘zbek tilidagi “sovuqqon” iborasi salbiy ma’no kasb etib, insonning har qanday sohaga befarqligi, e’tiborsizligi, odamlarga nisbatan kirishimsiz, muomalasiz kabi ma’nolarni anglatadi. Bunday fe’l - atvorli kishilar jamiyatda xush qarshilanmaydi. Turk tilidagi “soğukkanlı” iborasi ham insonning fe’l-atvorini tasvirlash uchun ifodalansada, bu ibora ijobiy ma’noda qo‘llaniladi. Turk tilidagi izohli lug’atda bu ibora quyidagicha izohlangan:

Turk va o‘zbek tillarida aytilishi bir ammo ma’nosi farqli bo‘lgan iboralardan yana biri “gönül koymak” dir. “Gönül koymak” iborasini o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z o‘girilsa “ko‘ngil qoymoq” iborasiga aynan, birga-bir o‘xshaydi. “Ko‘ngil qo‘ymoq” iborasi o‘zbek tilida qiz va yigit o‘rtasida yoki ayol va erkak o‘rtasidagi mehr qo‘ymoq, bir - birini yoqtirmoq, sevib qolmoq yoki boshqa bir jonsiz narsalarga nisbatan ham yaxshi ko‘rmoq ma’nolarini ifodalaydi. Ushbu iboraning turk tilidagi ma’nosи esa umuman boshqachadir. Turk tilidagi iboralarning izohli lug’atida shunday ta’rif berilgan: “Gönül koymak”- 1) Birisine alınmak, kırılmak, gücenmek. 2) Biriyle tüm iletişimini kesmek. 3) (Halk ağzında) Birisine aşık olmak, gönüл vermek deyiminin yerine kullanılır. [6.] Tarjimasi: “Gönül koymak” – 1) Biror bir kishidan hafa bo‘lmoq, dili og’rimoq, ko‘ngli qolmoq. 2) Biror bir kishi bilan o‘rtadagi aloqani uzish. 3) (xalq og’zaki ijodida, so‘zlashuvda) Biror kishiga oshiq bo‘lmoq, ko‘ngil bermoq iborasining o‘rniga ishlatiladi. Lug’atdagi izohlarga ko‘ra turk tilidagi “Gönül koymak” iborasi, o‘zbek tilidan farqli o‘laroq, biror kishidan xafa bo‘lish, dili og’rish kabi ma’nolarni ifodalaydi. “Kendisinden defalarca özür dilememe rağmen bana hala gönüл koyuyor”. [6.] Tarjimasi: “Undan necha marotaba uzr so‘rashimga qaramay, mendan haligacha hafa”. “Üç günlük dünyada kimse eski dostlarına gönüл koymamalı”. [6.] Tarjimasi: “Uch kunlik dunyoda hech kim qadrdon do‘stilaridan hafa bo‘lmasligi kerak”.

Yuqoridagi misollarda ko‘rib turganimizdek “gönüл koymak” iborasining ham tom ma’nosini o‘rganib qo‘llanilmasa, noto‘g’ri tarjimalarga yo‘l qo‘yiladi va yanglish fikrmulohazalarga olib keladi. “Gönüл koymak” iborasining lug’atda keltirilgan ikkinchi ma’nosи, yani “Biror kishi bilan o‘rtadagi aloqani uzish” ma’nosiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ibora ishlatilingan konteksdagi oldingi va keyingi gaplarning ma’nosiga qarab tarjima qilinishi to‘g’ri

bo‘ladi. Ushbu iboraning uchinchi ma’nosida: “xalq og’zaki ijodida, so‘zlashuvda, biror kishiga oshiq bo‘lmoq, “ko‘ngil bermoq” iborasining o‘rnida qo‘llaniladi” deya ochiqlangan.

1. O‘zbek tilida vaqtga oid frazeologizmlar
 - “Vaqt – oltin” (vaqtning qadrini anglatuvchi)
 - “Bir lahza qadrli” (har daqiqa muhim)
2. Turk tilida vaqtga oid frazeologizmlar
 - “Vakit nakittir” (vaqt – pul)
 - “Ani yaşamak” (onyi hayat kechirish)
3. Frazeologik birliklarning lingvistik va madaniy jihatdan tahlili

Yana shunday iboralar borki, ularning muqobili tarjima qilinayotgan til uchun butkul yot bo‘lishi mumkin, ya’ni tarjimon bu kabi frazeologik birlikka bir yoki ikki so‘zdan iborat ekvivalent topolmasdan faqatgina mazmunni kengaytirib yoritish bilan kifoyalanishi mumkin bo‘lgan holatlar ham ko‘p uchraydi. Bunga nafaqat turk tili, balki o‘zbek tilida ham ko‘plab misollar keltirish mumkin: „Ichini kemirmoq“, „Ichetini yemoq“, frazemalari ruhiyatda kuchli darajada bezovtalik borligidan darak beradi. „vahimaga tushmoq yoki judayam bir narsani bo‘rttirmoq“ iborasi esa:“pashshadan fil yasamoq“ birikmasi bilan beriladi. Mushkul vaziyatda qolmoq, mushkul vazifani bajarish – „Somonni orasidan igna qidirmoq“ hamda buning antonimi bajarish uchun oson diyeish uchun „Xamirdan qil sug‘urgandek“ deya ifodalanadi. Bu kabi birikmalarning aynan mos variantini turk tilida toppish mushkul. Xuddi shunday, turk tilida uchraydigan frazeologizmlarni tarjima qilish jarayonida ham shu kabi holatlar kuzatiladi. Bu nafaqat ma’lum bir halqning ushbu birikmani nima bilan ifodalashi balki shu iboraning yaratilishi bilan ham bog‘liq. Frazeologik birikmalar kuchli ma’no, bo‘yoqdorlik, obrazli ifodalar orqali nutqni faol vositaga aylantirib, asosan badiiy adabiyotda va publisistikada o‘tkir va ishonarli tasviri vositalarni yaratishga imkon beradi. Idiomalar qahramon obrazini tasvirlashda, personajlar nutqini shaxsiylashtirishda voqealarning emotsional tasvirini yaratishda kuchli vositadir. Idiomalarni turk tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishdagi qiyinchiliklar deyarli barcha tarjimonlar uchun alohida muarakkablik darajasiga ega bo‘lgan yo‘nalishdir. Chunki ko‘p holatlarda idioma tarkibiy qismlarini bir tildan boshqa tilga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilib bo‘lmaydi. Garchi frazeologizmlar ona tili bo‘lmaganlar uchun qiyinchilik tug‘dirishi mumkin bo‘lsa-da, ularni o‘rganish tarjimon va shu soha ixlosmandlari uchun qiziqarli. Frazeologizmlar oldingi davrlardagi juda ko‘p voqealarning holat va ma’lum vaziyatlardan darak beradi.

Xulosa Turk va o‘zbek tillarida vaqt konseptining lingvomadaniy talqini har ikkala xalqning til va madaniyatiga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Grammatik va frazeologik birliklar, tarixiy-madaniy yondashuv, shuningdek, zamonaviy dunyoda vaqt tushunchasining o‘zgarishi ushbu mavzuning qiziqarli jihatlarini, jamiyat haqida madaniy ma’lumot tashuvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Shuning uchun ham frazeologik birliklar o‘zida xalq mentaliteti va madaniyatini saqlavchi "hikmatlar xazinasi" bo‘lib, ular avloddan avlodga meros qilib qoldiriladi. Frazeologik birliklarni turli jabhalarda o‘rganish taddiqotchilarga ularning turli

xususiyatlarini farqlash va tilning frazeologik zaxirasi boyligini isbotlash imkonini beradi. Bu sohadagi tadqiqot natijalari, ayniqsa, doktorlik dissertatsiyalari katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, aynan shu soha taraqqiyoti uchun yangi istiqbollarni ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Lakoff, G. (1987). Cognitive models and prototype theory. In U. Neisser (Ed.), Emory symposia in cognition, 1. Concepts and conceptual development: Ecological and intellectual factors in categorization p. 68 Cambridge University Press
2. Лев Николаевич Гумилёв. Этногенез и биосфера Земли. – М: 1979 г.
3. Александром Наумов. Биография замысла. Беседы с мастерами узбекской литературы. – Ташкент: 1974, стр. 28–29
4. «Rebel angel. Wood, Bridget. London: Headline Book Pub. plc, 1993, pp. 162-252. 2543 s-units.»
5. Jackendoff R. Semantics and Cognition. Cambridge (Mass.), –Berlin: Mouton de Gruyter. 1993. – 16s.
6. Barbara Adam “Time and Social Theory” Blackwell publishers, Oxford 1991:
7. Schiffer S, Steele S (1988) Cognition and Representation. Westview Press, Boulder



**SHE’RIY TARJIMADA ADEKVATLIK VA EKVIVALENTLIK
MUAMMOLARI**

*Iskandar Sattibaev
Andijon shahar 1- son ixtisoslashgan maktab*

Annotation: Maqolada she’riy asarlarni tarjima qilishda yuzaga keluvchi asosiy muammo – adekvatlik va ekvivalentlik hodisalari haqida so`z boradi. Bu mavzuga oid soha mutaxassislarining qarashlari bilan bir qatorda ingliz tilidan o’zbekchaga qilingan she’riy tarjima tahlili vositasida mavzu chuqurroq ko`rib chiqiladi.

Kalit so`zlar: tarjima, she’riy tarjima, adekvatlik, ekvivalentlik, muvozanat, ingliz romantik she’riyati.

Аннотация: В статье рассматривается основная проблема, возникающая при переводе поэтических произведений, – явления адекватности и эквивалентности. Наряду с мнениями специалистов в данной области, тема детально анализируется посредством исследования поэтических переводов с английского языка на узбекский.

Ключевые слова: перевод, поэтический перевод, адекватность, эквивалентность, баланс, английская романтическая поэзия.

Annotation: The article discusses the main issue that arises in the translation of poetic works—the phenomena of adequacy and equivalence. Along with the views of specialists in this field, the topic is explored in greater depth through an analysis of poetic translations from English into Uzbek.

Keywords: translation, poetic translation, adequacy, equivalence, balance, English Romantic poetry.

She’riy asarlarni tarjima qilish murakkab vazifa bo‘lib, asliyatdagi shoir lirkasini boshqa tilga tarjima qilishda quyidagicha savol yuzaga keladi: she’r, boshqa tilga tarjima qilinganda, asl tildagi matnga aynan mos kelishi kerakmi yoki mualliflik maqsadini yanada aniqroq ifoda etish uchun zarur bo‘lgan chekinishlar qilishga ruxsat etiladimi? Shuningdek, she’riy matnni tarjima qilishda yana bir savol tug‘iladi: tarjima qilingan matn tarjima tilining o‘ziga xos xususiyatlariga mos kelishi kerakmi yoki aksincha, u o‘quvchiga asl til madaniy rang-barangligini va o‘ziga xosligini yetkazishi kerakmi?³⁹⁵

³⁹⁵ Минченко Е. Г., Никитинская Л. В. Способы достижения поэтической эквивалентности при переводе на примере трех переводов стихотворения “A man’s a man for a’ that” Роберта Бернса на русский. – Чебоксары. – С. 337

Raxmonova Maxbuba Ravshanovna

**TURK VA O‘ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLER ORQALI VAQT
TUSHUNCHASINI IFODALANISHI**

Shorasulova Arofat Ibroxim qizi

1759

SHE’RIY TARJIMADA ADEKVATLIK VA EKVIVALENTLIK MUAMMOLARI

Iskandar Sattibaev

1764

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SUBSTANDART BIRLIKLARNING TURLI NUTQIY
AKTLARDAGI SOTSIOPRAGMATIK TAHLILI**

Satimova Dilafruz Numonjonovna

1771

“FUNUN UL-BALOG‘A” – TURKIY POETIKAGA DOIR ILK NAZARIY MANBA

Shohista Mulloqulova

1779

**TERMINOLOGIYAGA KOGNITIV-FUNKSIONAL YONDASHUV: MA’NONI
SHAKLLANTIRISHDA KONTEKSTNING AHAMIYATI VA HAMKORLIKDA
MUAMMOLARNI HAL QILISHDA YORDAM BERISH**

Maxsudova Xolisxon Ummatovna

1784

**METAFACTION IN CONTEMPORARY ENGLISH LITERATURE: A JOURNEY
THROUGH NARRATIVE ARENAS**

Sobirova Nurxon Barot kizi

1789

**NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA XUSHMUOMALALIK NUTQIY AKTLARINING
O‘ZIGA XOS JIHATLARI**

Axmadjonov Nurbek Zokirjon o‘g‘li

1796

NAIM KARIMOV VA QODIRIYSHUNOSLIK MASALALARI

Abdilakimov Dilruxjon Rajab o‘g‘li

1804

**BADIY OBRAZNI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY KOLORIT VA
REALIYALARING AHAMIYATI**

Naima Soxibova Qodirjonovna

1809

**INGLIZ FRAZEOLOGIZMLARINING TARIXIY TADRIJIY SHAKLLANISH
BOSQICHLARI**

Nematullayev Nodirbek Muzaffar o‘g‘li

1814

**NEMIS VA O‘ZBEK FRAZEOLOGIZMLARINING TAQQOSIY TAHLILI:
O‘XSHASHLIK VA FARQLAR**

Yusufjonova Shaxloxon Muxtorovna

1819

**XUSUSIY DISKURSNING KOGNITIV TAMOYILLARI: BADIY MATN VA DETEKTIV
JANR MISOLIDA TADQIQOT**

Niyazova Gulnora G‘ulomovna

1824

SUD DISKURSIDA LINGVISTIK NAZARIYA VA UNING AMALIY AHAMIYATI

Nizomova Taxmina Jamoliddin qizi

1832

**LINGUACULTURAL ISSUES IN TRANSLATING MOVIE SUBTITLES FROM UZBEK
INTO ENGLISH BASED ON UZBEK NATIONAL IDENTITY (USING THE MOVIE
“REBELLION OF BRIDES” AS AN EXAMPLE)**

Khayrieva Madina Ilhomovna, Kushakova Nodira Odilovna

1837

KOGNITIV DISSONANS ATAMASINING MOHIYATI VA MOHIYATI

Tursunova Marxabo Raxmonovna

1844

**BILINGVALIZMNING INGLIZ TILINI IKKINCHI CHET TILI SIFATIDA
O‘QITISHDAGI ROLI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL**

Amirtdinova Dilorom Umidjon qizi

1851

OLAMNING LISONIY MANZARASIDA GENDER STEREOTIPLARINING O‘RNI

Shamshiyeva Diyora Isroilovna

1857

O‘ZBEK TILIDAGI YORDAMCHI SO‘ZLARNING LINGVISTIK TIZIMDAGI O‘RNI: FUNKSIONAL VA PRAGMATIK YONDASHUV <i>Azamat Pardayev Baxronovich</i>	1862
POSTMODERN, ABSURD AND EXISTENTIAL ELEMENTS IN NAZAR ESHONKUL’S WORKS (BASED ON THE NOVEL GURUGLI(GO’RO’G’LI)) <i>Ismoilova Niginabonu To‘lqin qizi, Shukurova Sabokhat Odilovna</i>	1873
LINGUOCULTUROLOGICAL PERSPECTIVES ON FOOD VOCABULARY IN UZBEK AND ENGLISH LITERATURE <i>Hojiyeva Mehrangiz G’ayrat qizi</i>	1879
LINGUISTIC FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH A COMMON MEANING "HOSPITALITY". <i>Najmuddinova Mehribul Najmuddin qizi</i>	1886
ABDULLA ORIPOV LINGVOPOETIKASIDA TARIXIYLIK VA ZAMONAVIYLIK <i>Umida To‘rayeva</i>	1892
ZOOSIMVOLIK OBRAZLAR SHAKLLANISHIDA KOGNITIV MEXANIZMLARNING ROLI (fransuz tili misolida) <i>Qo‘chqorova Sadoqat Toshpo‘latovna</i>	1897
THE USE OF EDUCATIONAL GAMES IN THE DEVELOPMENT OF VOCABULARY IN ENGLISH <i>Botirova Nargiza Gafforovna</i>	1903
QONUN TILINING HUQUQIY TERMINLARGA TA’SIRI <i>Qurbanova E’zoza Shuhrat qizi</i>	1907
НАЖМИДДИН КУБРО ИЖОДИДА НАФС ВА УНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ АХЛОҚИЙ АСОСЛАРИГА ДОИР ҚАРАШЛАР. <i>Машарипов Кўзбой Ванаевич</i>	1914
IJTIMOIY TARMOQLARDAGI TIL BIRLIKHLARI LINGVISTIK EKSPERTIZASIDA METODOLOGIYA MASALASI <i>Rahimqulova Lobar Hamro qizi</i>	1919
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA INSON INTELLEKTUAL QOBILIYATINI IFODALOVCHI IBORALARNING AHAMIYATI <i>Shamsiyeva Xolida Sharobiddin qizi</i>	1925
NURALI QOBUL HIKOYALARIDA ROVIY USLUBI VA UNING BADIY VAZIFASI <i>Talipova Aida Muratovna</i>	1931
THE ROLE OF CULTURAL CONTEXT IN TRANSLATION <i>Dilfuzaxon Saidkodirovna Saidkodirova</i>	1935
TIL VA TARIX UYG‘UNLIGI: NEMIS VA O‘ZBEK FRAZEOLOGIZMLARINING KELIB CHIQISHI <i>Yusuffjonova Shaxloxon Muxtorovna</i>	1940
TRANSLATION OF THE CONCEPT OF “HOSPITALITY” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES <i>Tilyabov Shokhruz</i>	1945
THEORETICAL FOUNDATIONS OF STYLISTIC ANALYSIS <i>Tukhtamurodova Dilnura Dilmurodjon qizi</i>	1951
TOG‘AY MUROD ASARLARIDAGI ZOONIMIK KOMPONENTLI BIRIKMALARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI <i>G.A.Tursinbayeva</i>	1955
“TARIXI ANBIYO VA HUKAMO” ASARIDA TARIXIY VA BADIY VOQELIK TASVIRI	1963

Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar



Кокандский ГПИ. Научный вестник

“Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar” ilmiy журнали OAK Rayosatining 2021-yil 31-martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix hamda 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika fan tarmoqlari bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

Bosishga ruxsat etildi: 2025-y. Nashriyot bosma tabog‘i –16,375.

«Poligraf Super Servis» МЧЖ

150114, Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahar, Aviasozlar ko‘chasi 2 –uy

Elektron manzil: kspi_info@edu.uz

№3”/2025